

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO‘K: 930.85(575.1)“02”

TURON SIVILIZATSIYASI AHOLISINING IJTIMOYIY HOLATIGA MADANIY ALOQALARNING TA’SIRI

THE INFLUENCE OF CULTURAL CONTACTS ON THE SOCIAL STRUCTURE OF THE TURAN CIVILIZATION POPULATION

ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ КОНТАКТОВ НА СОЦИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ ТУРАН

Shaydullayeva Guljahon Shapulatovna 
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti

Annotatsiya

Lazurit, xlorit va boshqa ma’danlarni ishlab chiqarish va unga ishlov berish qanday yo‘lga qo‘yilgan, savdo munosabatlari qay tarzda olib borilgan degan tabiiy savol tug‘iladi. Fikrimizcha, bu savolga javob berish uchun eng avval Mesopotamiyadan sharqda joylashgan hududlarga, Eron va O‘rta Osiyoga eskicha qarashlarga, “periferiya” tushunchasiga chek qo‘yilishi kerak. Shu bilan bir qatorda bu hududlar o‘z holicha, madaniy va iqtisodiy aloqalarsiz ham rivojlanmaganligi xususidagi ilmiy qarashlar yuzasidan fikr boradi.

Аннотация

Возникает естественный вопрос: каким образом было налажено производство и обработка лазурита, хлорита и других полезных ископаемых, каким образом осуществлялись торговые отношения? На наш взгляд, чтобы ответить на этот вопрос, прежде всего необходимо отказаться от устаревших представлений о регионах, расположенных к востоку от Месопотамии – таких как Иран и Центральная Азия, а также от понятия «периферия». Наряду с этим, существует научная точка зрения, согласно которой эти регионы не развивались изолированно, без культурных и экономических связей.

Abstract

A natural question arises: how were lapis lazuli, chlorite, and other minerals produced and processed, and how were trade relations conducted? In our opinion, to answer this question, it is first necessary to abandon outdated views of the regions east of Mesopotamia – namely Iran and Central Asia – as “peripheral” areas. At the same time, there is a need to consider the scholarly perspective that these regions did not develop in isolation, without cultural and economic connections.

Kalit so‘zlar: Mesopotamiya, Uruk, Akkad, Tepe Yahya, Tashqi Eron, Suza, Tashqi Eron sivilizatsiyasi.

Key words: Mesopotamia, Uruk, Akkad, Tepe Yahya, Outer Iran, Susa, Outer Iranian civilization.

Ключевые слова: Месопотамия, Урук, Аккад, Тепе Яхья, Внешний Иран, Сузы, цивилизация Внешнего Ирана.

KIRISH

Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari tarixini o‘rganishda O‘rta Osiyo, xususan Turon hududi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu o‘lka qadimdan Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy hamda savdo aloqalarining faol markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Turon sivilizatsiyasi shakllangan hudud – Baqtriya, Marg‘iyona, Xorazm, Sug‘d va boshqa tarixiy-madaniy viloyatlar – bronza davridayoq murakkab ijtimoiy tuzilma, rivojlangan hunarmandchilik, sug‘oriladigan dehqonchilik va keng savdo aloqalariga ega bo‘lgan.

Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Turon jamiyatida ijtimoiy tabaqalanish, hokimiyat institutlari va shahar–davlat tizimi ichki rivojlanishning mantiqiy natijasi bo‘lish bilan birga, yaqin va uzoq hududlar bilan madaniy aloqalardan ham sezilarli darajada ta’sirlangan. Xususan, Mesopotamiya, Elam, Hind vodiysi, Eron platosi va Afg‘oniston hududlari bilan yuzaga kelgan iqtisodiy va ma’naviy almashinuv Turon aholisi hayotida muhim o‘rin tutgan.

Lazurit, xlorit, turli metall rudalari, tosh va bronzadan yasalgan buyumlarning keng savdosi madaniy aloqalarni yanada faolroq qilgan. Bu jarayon hunarmandchilik markazlarining shakllanishi, jamoa tuzilishining murakkablashuvi, boshqaruv tizimining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Shunday

qilib, Turon sivilizatsiyasi rivoji nafaqat mahalliy ichki omillar, balki madaniy aloqalar vositasida tashqi ta'sirlar bilan ham uzviy bog'liq bo'lgan.

Ushbu maqolada Turon hududi aholisi ijtimoiy hayotiga madaniy aloqalarning ta'siri arxeologik manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi hamda bu jarayonning qadimgi O'rta Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishidagi o'rni ko'rsatib beriladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Qadimgi Sharq bilan O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi aloqalar bir necha davriy bosqichlardan iborat. Bu aloqalar mobaynida xalqlarning ijtimoiy rivojlanishi ham o'zgarib borgan. Mesopotamiya shaharlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va buning natijasida topilgan Eron va O'rta Osiyoga xos ma'danlar asosida bu aloqalar ilk Uruk davridan boshlanib III sulolalar, yoki Akkad davrigacha davom etganligi kuzatilmoqda [1].

Sharq xalqlarining Eron va O'rta Osiyoga ma'danlar uchun birinchi yurishlari "Uruk ekspansiyasi" deb ataladi. Bu davrda Eronning juda ko'plab yodgorliklarida protoelam yozuvida bitilgan sopol "taxtacha"lar hamda xloritdan yasalgan buyumlar tarqaladi. [2]. P. Amyening fikricha Mesopotamiya shaharlarida bu mahsulotga ehtiyoj nihoyatda katta bo'lgan va Ur shahridan topilgan, lojuvard va xloritdan yasalgan buyumlar eksport mahsulotlarining eng ko'pidir.

Lazurit, xlorit va boshqa ma'danlarni ishlab chiqarish va unga ishlov berish qanday yo'lga qo'yilgan, savdo munosabatlari qay tarzda olib borilgan degan tabiiy savol tug'iladi. Fikrimizcha, bu savolga javob berish uchun eng avval Mesopotamiyadan sharqda joylashgan hududlarga, Eron va O'rta Osiyoga eskicha qarashlarga, "periferiya" tushunchasiga chek qo'yilishi kerak. Shu bilan bir qatorda bu hududlar o'z holicha, madaniy va iqtisodiy aloqalarsiz ham rivojlanmagan. Bu borada adabiyotlarda paydo bo'lgan ayrim fikrlarga o'z munosabatimizni bildirib o'tishimiz lozim.

K. Lamberg-Karlovskiyning Tepa Yahyoda olib borgan tadqiqotlari natijasida yodgorlikda protoelam davrida rivojlangan ma'muriy boshqaruvning mavjud bo'lganligi aniqlangan. Tadqiqotchi Tepa Yahyoning boshqaruv usuli butun shakl va shamoyili bilan Mesopotamiya va Suzadan farq qilmasligini ta'kidlaydi [3].

Bu ilg'or fikr mutaxassislar tomonidan tanqidga ham uchragan. D. Pottsning fikriga qaraganda protoelamning rivojlangan shaharlaridan, jumladan Badaxshon, Suza yoki Malyanadan kichik savdogar guruhlar kelib, tovar ayriboshlash natijasida lazurit yoki xlorit toshlar olib ketilgan[4].

Shu mavzuda tarixiy haqiqatga yaqinroq fikrni Tepa Sialk yodgorligida tadqiqotlar olib borgan R. Girshman aytib o'tgan. Uning yozishiga qaraganda, Tepa Sialk suzaliklar tomonidan ishgo'l qilingan. Ular mis va savdo yo'llarini nazorat qilishgan. Chunki, Sialk atrofida oltin va qo'rg'oshin zahiralari ham joylashgan[5].

D. Eldenning ta'kidlashicha, minerallarni qazib olish, unga ishlov berish, yo'llarni nazorat qilish, Qadimgi Sharq shaharlariga etkazib berish va savdo ishlarini protoelam hududidan chiqqan bir guruh savdogarlar olib borgan va ular bu ishda o'z monopoliyalarini o'rnatgan. Fikrimizcha, D. Eldenning bu g'oyasi Qadimgi Sharq markazlari tomonidan mahalliy xalqlarni nazorat qilmagan, siyosiy va jismoniy tahdidning yo'qligi sharoitida yuz berishi mumkin. D. Eldenning fikrlarini tadqiqotchi T. Uotkins biroz to'ldirgan. Uning qarashlari bo'yicha protoelamlik monopolistlar bu hududlarda mahalliy xalqlar bilan birga tinch yashashgan va ishni ular bilan birga tashkillashtirishgan [6].

P. Amye "Tashqi Eron" deb atayotgan O'rta Osiyoning janubida mil. av. III ming yillik oxiri va II ming yillikning birinchi yarmiida yashagan aholining ijtimoiy tarkibini aniq kuzatish mumkin. Shu davrda bu hududda kuchli iqtisodiy yuksalish kuzatiladi, yodgorliklarning soni keskin oshadi va hududiy kengayishi kuzatiladi, jamoa tarkibi murakkablashib boradi. Protoelam yozuvidan farq qiladigan, sodda piktografiya yozuv usuli shakllanadi. Bu yozuv usuli Eronning Shaxdod, Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston hududlarida tarqalgan, sopolarga bitilgan belgili yozuvdan iboratdir. Jarqo'ton piktografiyasi Shaxdod yozuvlari bilan taqqoslanishi natijasida ushbu belgilarning piktografik yozuv ekanligi asoslab berildi [7].

SH.B. Shaydullayevning fikricha, ilk shaharlar, shaharlar bilan bir tarixiy jarayonda vujudga keladigan ilk davlatlar boshlang'ich yozuv usuli, ya'ni inson o'z fikrini ifoda etishsiz davlatning ham vujudga kelishi mumkin emas. Boylikning oshishi sanoqqa, xo'jalikni boshqarish jarayonining murakkablashishi esa yozuvga ehtiyoj tug'dirgan [8].

P. Amyening fikriga qaraganda "Tashqi Eron" hududida boshqa sivilizatsiyalarga o'xshamaydigan, o'ziga xos jamoa shakllangan. Bu hudud xalqlari yaratgan moddiy madaniyat

TARIX

ashyolari nihoyatda bir-biriga o'xshashligi bilan xarakterlanadi. Bu sivilizatsiya vakillari doimiy ravishda bir-biri bilan yaqin madaniy va etnik aloqada bo'lgan [9].

V.M. Massonning qarashlari bo'yicha Janubiy Turkmaniston va unga qo'shni bo'lgan hududlarda Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos bo'lgan jamoalar shakllangan. Uning tarkibi uch tabaqadan, yuqori, o'rta va hunarmandlardan iborat bo'lgan [10]. Tadqiqotchi yuqori tabaqa vakillariga Oltindepining alohida, boshqa aholidan ajratib qurilgan hashamatli binolarda yashagan aholini, o'rta hol aholiga umumiy mahallalarda va hunarmandlarga esa xunarmandlar mahallalarida yashagan aholini kiritadi. V.M. Masson Oltindepe atrofida o'rganilgan, pillapoya shaklli, devorlari bo'rtma naqshlar bilan bezatilgan binoni zikkurat deb hisoblaydi va jamoani patriarxal oila boshliqlari boshqarganligini ta'kidlaydi hamda eng boy qabrlarni patriarxlarga tegishli ekanligini yozadi [11].

V.M. Massonning fikricha, rivojlangan bronza davrida Janubiy Turkmaniston "shahar revolyutsiyasi" jarayonini boshidan o'tkazayotgan, shaharning hududi kengayishi bilan alohida mahallalarga bo'linib borgan, hunarmandchilik mutaxassislashib, rivojlanishda shumer yo'lidan borgan va ilk shahar madaniyatiga asos solingan [12].

P. Amyening fikriga qaraganda "Tashqi Eron sivilizatsiyasi" ga mil. av. XXII asrda, Mesopotamiyaning so'nggi sulolasi vakili Avan Puzur Inshushinak zamonida asos solingan. "Tashqi Eron"da yaratilgan moddiy madaniyat namunalari nihoyatda o'xshashligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun V.I. Sarianida bu hududni Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK) deb ataydi [13].

Baqtriya tarixi bo'yicha ko'plab g'oyalar muallifi P. Amye BMAKni madaniyatlar "koyne"si deb ataydi va bu holat moddiy madaniyat namunalari asosida yaxshi kuzatiladi. Alebastr va xloritdan yasalgan tosh idishlar, murakkab shaklli bronzadan yasalgan predmetlar, qurollar va zargarlik buyumlari shular jumlasiga kiradi.

P. Amye birinchilardan bo'lib Oks sivilizatsiyasi vakillarining madaniy aloqalarining juda kengligini sezgan va ilmiy yoritgan tadqiqotchidir. Ilohiy boltalarning kelib chiqishini Eron, muhrlardagi tasvirlarni Suriya va u orqali Egey dengizi bo'yolari, metall buyumlarni esa Misr va Xarappa bilan bog'laydi va bu sivilizatsiyaning eng rivojlangan davrini mil. av. XVIII-XVII asrlar deb hisoblaydi. [14].

P. Amye o'z tadqiqotlarida har qanday sivilizatsiyaning rivojlanishida ko'chmanchi madaniyatlarining ta'siri masalasini hech qachon esdan chiqarmaslik kerakligi xususida yozadi. U "Tashqi Eron"ning rivojlanishida Mesopotamiya va Suzaning ta'sirini inkor etmagan holda, Baqtriya fenomenida "uzoq masofali savdo" asosiy rolni o'tamagan deb hisoblaydi va ko'chmanchilarning, ko'chmanchi-hunarmandlarning o'rni haqida ijobiy fikrlar bildirgan [15]. U Baqtriyaning ikkinchi ming yillikdagi aholisi haqida yozib, ularni dehqonlar bilan baqamti yashagan, qal'alari bor ko'chmanchilarga qiyoslaydi. Baqtriyaning Dashtli singari qal'alari ko'chmanchilarga tegishli bo'lib, karvon saroy va ombor vazifasini o'tagan, shu singari imoratlar ko'chmanchi-hunarmandlarning aristokratiyasi mavjud bo'lganligini isbotlaydi deb yozadi. [16].

Professor M. Toci esa Markaziy Osiyoda chorvachilik, hunarmandchilik va dehqonchilik bir-biriga uyg'un ravishda rivojlangan, xalqaro savdo esa ularni muvofiqlashtirib turgan deb hisoblaydi. U Sopollitepada ayollar qabrlarida boy ashyolarining uchrashini ko'chmanchilarga xos bo'lgan odat deb tushuntiradi [17].

Baqtriya va Marg'iyonaning bronza davri madaniyatlarining rivojlanishida ko'chmanchi-chorvadorlarning o'rni to'g'risidagi ushbu fikrlar V.M. Masson va V.I. Sarianidining tanqidiga uchragan. Ular mil. avv. III-II ming yilliklarda skif yoki sak kabi ko'chmanchilar emas, balki Baqtriya va Marg'iyonaning tog' va cho'llarida yashaydigan, BMAK aholisi bilan baqamti yashagan cho'ponlar to'g'risida gapirsa to'g'ri bo'ladi, degan fikrga kelishgan [18]. YE.V. Antonovanning fikricha, V.M. Masson va V.I. Sarianidi yuqoridagi tadqiqotchilarni noto'g'ri tanqid qilishgan va ko'chmanchi deganda o'zlarining qal'alari bo'lgan, dehqonlarning qo'shnisini tushunish kerak deb yozadi [19].

To'g'ri, Sopolli yoki Jarqot'on yodgorliklarida juda ko'plab hayvon suyaklari topilgan [20]. Lekin bu holat P. Amyening fikri to'g'ri, «Tashqi Eron» aholisining bir qismi chorvadorlar edi, degan xulosani bermaydi. Chorva mollari cho'ponlar ko'magida boqilgan desak, to'g'ri bo'ladi. Demak, P. Amyening Baqtriyaning Dashtli kabi qal'asifat binolari ko'chmanchi aholining karvonsaroylari yoki omborxonalari bo'lgan, degan fikrini qo'llab bo'lmaydi.

K. Lamberg-Karlovskiy Baqtriya va Marg'iyonada, ilk temir davridan boshlab Xorazmda "khanates" boshqaruv usuli mavjud bo'lgan, degan g'oyani o'rtaga tashladi. Bu g'oyaning asosida

obro'li kishilar boshchiligida jamoaning rivojlanishga erishishi yotadi. Amerikalik tadqiqotchining fikricha Oks sivilizatsiyasi aholisi agressiv bo'lib, hududini doimo boshqa xalqlar eri hisobiga kengaytirib borgan. Eng asosiysi bu sivilizatsiyaga yuqori rivojlangan fortifikatsiya xarakterli bo'lib, qal'a devorlari 5 metr qalinlikda, kvadrat va doira shaklidagi burjlar ham o'rnatilgan. Qal'alar to'rtburchak va doira shakllarida qurilgan. Ushbu yirik monumental binolar – qal'alar shohlar yashaydigan qo'nimgoh, bir necha me'moriy binolarni jamlagan ibodatxona, ichki saroy va boshqa me'morchilik ansambllarini o'z ichiga olgan. Bu yirik himoya binolari mil. avv. III ming yillik so'nggida va II ming yillik boshida bu o'lkalar kolonizatsiya qilinganidan so'ng suv va er resurslari uchun qattiq kurash sababli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin deb. K. Lamberg-Karlovskiyning fikricha, qal'alar bronza va ilk temir davrida ishlab chiqarishni, jumladan dehqonchilik ishlarini tashkillashtirish vazifalarini ham bajargan deb hisoblaydi[21]. U ushbu qal'alar qurilishini Markaziy Osiyo uchun shahar-davlatlar tizimini anglatadigan model sifatida taklif etadi.

K. Lamberg-Karlovskiy boshqa bir asarida Baqtriya sivilizatsiyasining paydo bo'lishida chorvachilikning o'rni to'g'risida to'xtalib, boy qabrlar, tasviriy san'atdagi tuya, echki, kiyikning ifodalanishi, murakkab me'moriy qurilmalar chorvador va dehqon qabilalarning madaniy aloqalari timsolidir, deb ta'riflaydi[22].

T.SH. Shirinov tomonidan o'rganilgan Jarqo'ton shohlar saroyining «ark» qismida joylashganligi, mahobatli fortifikatsiyaga egaligi, ma'lum bir me'moriy echimda qurilganligi tadqiqotchiga bu inshootni saroy deb atashga imkon bergan. T.SH. Shirinovning tadqiqotlarida Jarqo'ton Qadimgi Sharq dunyosining shahar-davlatlari bilan qiyosiy taqqoslangan. Yodgorlikning topografiyasi, boshqaruv va ishlab chiqarish tizimining shakllanganligi natijasida yaratilgan moddiy madaniyat namunalari, madaniy aloqalar darajasi muallifga yodgorlikni shahar-davlatlar toifasiga kiritish imkonini bergan T.SH. Shirinovning umumiy xulosalariga ko'ra Jarqo'ton Qadimgi Sharq tipidagi ilk shaharlar toifasiga mansub bo'lib, yuqori rivojlangan boshqaruv tizimiga ega bo'lgan[23].

SH.B. Shaydullayev xulosalariga ko'ra Baqtriyada ilk boshqaruv tizimi ibtidoiy bo'lsa-da davlatchilikdan avval, jamoalar davridan boshlab shakllangan (oila, patriarxal oila, qishloq jamoasi boshqaruvi). U ham ilk davlatlarning arxeologik belgilari asosida Jarqo'ton, To'g'aloq va Gonur kabi yodgorliklarni shahar-davlatlar toifasiga kiritadi. Bunda u Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi uchun ishlab chiqilgan, bugungi kunda jahonning qadimgi davlatlari shakllangan hududlari uchun qo'llanilayotgan ilk davlatlar tipologiyasini (shahar-davlatlar, hududiy davlatlar, imperiyalar) takomillashtirgan holda Baqtriya uchun qabul qilgan[24].

XULOSA

Keltirib o'tilgan, mavzuga tegishli adabiyotlar tahlili shunday xulosa chiqarishga imkon beradi:

miloddan avvalgi III-II ming yillik oralig'ida O'rta Osiyo xalqlari tarixida noaniq jarayonlar talaygina bo'lsada, shuni ta'kidlash joizki, bu hudud shu davrda nihoyatda katta evolyutsion-tadrijiy rivojlanishni boshidan kechirgan. Sharq xalqlari bilan aloqalari va jamoalarning ichki rivojlanishi natijasida u qishloq jamoasidan ilk shahar va davlatlarning o'rnatilishi darajasiga qadar bo'lgan rivojlanish yo'lini bosib o'tgan;

shuni alohida ta'kidlash lozimki, Mesopotamiyadan sharqda joylashgan hududlarga, xususan Eron va O'rta Osiyoga nisbatan "periferiya" tushunchasini umuman tarixchilar ongidan o'chirib tashlash kerak. Bu hududlar Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ajralmas bir bo'lagi va yangi sivilizatsiya markazlari sifatida fanga kirib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda bu hududlar o'z holicha, madaniy va iqtisodiy aloqalarsiz ham rivojlanmagan;

qadimgi dunyo tarixida Sharq xalqlarining Eron va O'rta Osiyoga ma'danlar uchun birinchi yurishlari "Uruk ekspansiyasi" deb ataladi. Bu qarashlarning ham noilmiyligi asoslanmoqda. O'rta Osiyo xalqlari Mesopotamiya bilan bevosita madaniy aloqalar o'rnatmagan, bu aloqa bilvosita, ya'ni Eron va Hindiston xalqlari orqali amalga oshirilgan;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Baqtriya, Marg'iyona va Qadimgi Eron hududlarida o'rganilayotgan davrda ilk shahar va davlatchilik munosabatlari o'rnatilgan bo'lib va bu xalqlar o'z ma'danlarini hech kimga talon-taroj qildirib qo'ymagan;

O'rta Osiyoning janubida mil. avv. III ming yillik oxiri va II ming yillikning boshlarida madaniy aloqalar natijasida iqtisodiy yuksalish seziladi, yodgorliklarning hududiy kengayishi kuzatiladi, jamoa tarkibi murakkablashib, protoelam yozuvidan farq qiladigan, sopollarga bitilgan piktografik belgili yozuv tizimi shakllanadi;

Janubiy O'zbekistonning bronza davri aholisi Qadimgi Sharq xalqlari bilan bir xil rivojlanish darajasida bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Массон В.М. Первые цивилизации. Л., 1989; Массон В.М. Протогородская цивилизация юга Средней Азии. СА, №3, 1967.
2. Amiet P. Elam and Baktria. Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. Roma-Venezia, 1989.
3. Lamberg-Karlovsky. Third Millenium Models of Exchange and Models of Production. Ancient Civilizations and Trade. Albuquerque, 1975.
4. Potts D.T. Tepe Yahya and the End of the 4th Millenium on the Iranian Plateau – Le Plateau Iranien et l'Asie Centrale des origins a la conquete islamique. Paris, 1977.
5. Ghirshman R. Iran. Pelikan Books, 1954.
6. Watkins T. in Cur. Anthr., v.23,6, 1982.
7. Чариев З.У., Ш.Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. Т., 2005. Hakemi Ali. Sahdad. Roma, 1977.
8. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. Тарих фанлари докторлиги диссертацияси автореферати. ЎзР ФА Археология институти. Самарқанд, 2009
9. П. Амье Эрон тушунчасини кенг маънода тушуниш керак деб, ҳозирги Афғонистон, Ўрта Осиёнинг жанубий ҳудудларини "Ташқи Эрон" деб атади, ва бу халқлар Эрон билан боғлиқ ҳолда ривожланган деб ҳисоблайди. Қаранг: Amiet P. Elam and Baktria. Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. Roma-Venezia, 1989; Amiet P. Glyptique Susienne. Des origines a L'epoque des perses Achemenides (MDAI, t. XLIII). Paris, 1972; Amiet P. L'age des echanges inter-iraniens 3500-1700 avant. P., 1986.
10. Массон В.М. Экономический и социальный строй древних обществ. Л., 1976; Массон В.М. Экономические предпосылки сложения классового общества. Ленинские идеи в изучении истории первобытного общества, рабовладения и феодализма. М., 1970; Массон В.М. Формирование раннеклассовых обществ и вопросы типологии древних цивилизаций. Древний Восток и античный мир. М., 1980; Массон В.М. Становление раннеклассового общества на Древнем Востоке. ВИ, №5, 1967.
11. Массон В.М. Алтын- дөпө. Труды ЮТАКЭ. Том XVIII. Л., 1981.
12. Массон В.М. Первые цивилизации. Л., 1989; Массон В.М. Протогородская цивилизация юга Средней Азии. СА, №3, 1967
13. Sarianidi V. Margiana and Protozoroastrism. Athens, 1998; Sarianidi V.I. Seal-Amulets of the Murgab Style // The Bronze Age Civilization of Central Asia. Recent Soviet Discoveries. Ed. by Kohl P. L., New York, 1981.
14. Amiet P. Elam and Baktria. Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. Roma-Venezia, 1989.
15. Amiet P. L'age des echanges inter-iraniens 3500-1700 avant. P., 1986.
16. Amiet P. Elam and Baktria... – P. 137-138.
17. Tosi M. The Origins of Early Bactrian Civilization. Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. Roma-Venezia, 1989. P. 69-71.
18. Массон В.М. Протобактрийский блок древневосточных цивилизаций (К выходу книги: Amiet P. L'age des echanges inter-iraniens 3500-3700 avant J.-C. Paris, 1986). Информационный бюллетень МАИКЦА Вып.14, М., 1988; Сарианиди В.И. Amiet P. L'age des echanges inter-iraniens 3500-3700 avant J.-C. Paris, 1986. Информационный бюллетень МАИКЦА Вып.14, М., 1988. - С. 99-100.
19. Антонова Е.В. Контакты Месопотамии с восточными землями в IV-III тыс.до н.э. // Азия диалог цивилизаций. - С. Петербург, 1996. - С. 197-240.
20. Батиров А., Широных Т. Костяные изделия из памятников археологии Узбекистана // ИМКУ, Вып. 19. - С. 108-118.
21. Lamberg-Karlovsky C. Third Millenium Models of Exchange and Models of Production. Ancient Civilizations and Trade. Albuquerque, 1975.
22. Lamberg-Korlovskiy C. The Bronze Age of Baktria. Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. Roma-Venezia, 1989.
23. Широных Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Автореф. дис. на соиск. д.и.н. М., 1992.
24. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. Тарих фанлари докторлиги диссертацияси автореферати. ЎзР ФА Археология институти. Самарқанд, 2009.